

GLOBALLASHUV DAVRIDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA OILA VA MAHALLANING O'RNI

IV Surxondaryo akademik
litseyi huquqshunoslik fani
o'qituvchisi **Turakulov**
Boyburi Kuzimuratovich

Kalit so'zlar: oila, farzand, tarbiya, ma'naviyat, qadriyatlar, ota-ona, mahalla, an'ana. **Ключевые слова:** семья, ребенок, воспитание, духовность, ценности, родители,

махалля, традиции, культура, наследие, молодежь, .

Keywords: family, child, upbringing, spirituality, values, parents, mahalla, custom.

O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash har jihatdan barkamol avlod tarbiyasiga bog'liqdir. Yosh avlodni ruhan tetik, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'naviy teran qilib kamol toptirish ajdodlarimiz ma'naviya tining ajralmas qismi bo'lgan. Bugungi murakab globallashuv jarayonlarida yoshlarimizni ma'naviy tahdidlardan himoya etishda ularni milliy ma'naviy qadriyatlarimiz va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga, yurtimizda juda qadim zamonlardan buyon tarbiya maskani sifatida oilan muqaddas hisoblanib kelingan. Azaldan yurtimizda oila mustahkam, uning a'zolari tinch, farovon va sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilganlar. Bugun gi kunda jamiyatimizning har qanday sohasida globallashuv jarayoni yuzaga kelmoqda. Globalla shuv tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib,

kengroq ma'noda milliy va mintaqaviy muammolarning umumjahon muammolariga o'sib o'tishi va yangi xo'jalik, ijtimoiy va tabiiy-biologik global muhitning shakllanishidir. Aniqroq ma'noda esa bu iqtisodiy va xo'jalik tuzilmalarining transformatsiyasi bo'lib, yaxlit va yagona jahon geoiqtisodiy

voqeligiga aylanishidir. Globallashuvning aniq sohalari sifatida ilmiy-texnik texnologiya, axloqiyetik qadriyatlar (global etika), xalqaro xavfsizlik va barqarorlik kabilar tilga olinadi.

Shu asosda ertangi kun taraqqiyoti uchun oila va farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratganlar. Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini, ayniqsa, farzandlar tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagicha tushuntirib beradi: “Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda” [1, 505], – deb ta’kidlaydi. Jamiyatning mustahkamligi, osoyishtaligi oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, davlatning sog‘lom turmush tarzi esa oila a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan samimiy munosabat, oila a’zolarining axloqiy tarbiyasiga bog‘liq bo‘lgan. Oilaning muqaddas burchi hamda vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, uni yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli qilib tarbiyalash, balki jamiyatda o‘z o‘rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan ham iboratdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov sog‘lom bolani, avvalo, sog‘lom muhit shakllangan oilada kamol topishini quyidagicha tushuntirib o‘tadi: “Biz oilani hayot davomiyligini ta’minlaydigan, nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat odamiylik mehr-oqibat, o‘z vataniga, xalqiga sadoqatli bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi” [2, 77]. Jamiyatda obod turmushni kamol toptirishda sog‘lom tafakkur, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish bevosita oilaviy muhit bilan bog‘liqdir. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari quyidagicha belgilangan:

– oilada sog‘lom muhitni yaratish; milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lishi, farzandda ota-onasiga, vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro g‘amxo‘r bo‘lishni ta’minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhtini yaratish;
- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;
- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish;
- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim-ko'nikmasini doimo oshirib borish;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichmabosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;
- ota-ona oila, maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish;
- sog'lig'ida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.

Oila va mahalla har tomonlama bir-biri bilan bog'liq. Mahalla oilalardan tashkil topadi. U oilaning eng yaqin maslahatchisidir. Yoshlar o'rtasida birlik va hamjihatlikning muhim vositalaridan biri mahalladir. Yosh avlod tarbiyasiga ham barcha mahalladagilar mas'uldirlar. Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo'llovchi makon, oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan maskandir.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladi. Ular har bir oiladagi muhitni

va har bir bola tarbiyasini, ota-onasining mahallada tutgan o'rni va obro'-e'tiborini, har bir oilaning mavqe imkoniyatlarini yaxshi biladilar. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo'lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tayanchidir.

Sharq xalqlari, chunonchi, o'zbek xalqi ham sog'lom turmush tarzining mohiyatini yaxshi tushunadi, teran ma'no-mazmunini chuqur anglaydi.

Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham, boshiga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir. Insonlar o'rtasidagi bunday birlik va hamjihatlikning asosi oilada hamda mahallada shakllanadi. Oilada, avvalo, ota-onaning o'z farzandlari tarbiyasida shaxsiy o'rnak, ibrat, namuna bo'lishi muhim mezon sanaladi. Ota-onaning oiladagi xulq-atvori, muomala madaniyati, yurish-turishi farzandlari ma'naviy tarbiyasining shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ota-onalarning o'zlari sharqona odobaxloq qoidalariga rioya etishlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarga yuksak ehtiromda bo'lishi, yuksak umuminsoniy xislatlarga ega bo'lishlari kerak. Mana shunday ijobiy xislatlarga ega bo'lgan otaona farzandlarda vatanparvarlik, fidokorlik, sadoqat, mardlik, jasurlik, chidamlilik, vazminlik, qadr-qimmat, tashabbuskorlik kabi xislatlarni shakllantiradi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida: "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi alohida ta'kidlanadi" [3, 203]. Shuning uchun ham oiladagi axloqiy muhit kishilik jamiyatida mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlarning eng qadimiysi va eng muhimi bo'lib, nafaqat er va xotin o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi, balki farzandlar yetuk inson sifatida shakllanishining dastlabki va asosiy mezonidir. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotidagi oilaning rolini oshirish hamda uning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida:

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.....” va 64-moddasida esa: “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar...” [4, 21], – deb ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning uchun ota-onalarning o‘zlari sharqona odob-axloq qoidalariga va huquqiy tomonlarga rioya etishlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarga yuksak ehtiromda bo‘lishi, yuksak umuminsoniy xislatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Binobarin, ma’naviy boy, axloqan pok, jismonan sog‘lom farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish dastlab oila va mahallada amalga oshiriladi. Insonga bir umr hamroh bo‘ladigan insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, fidoyilik, sadoqat, mardlik kabilarning barchasi oiladan boshlanadi. Oila yoshlarni axloq-odobi, rostgo‘y, mehnatsevar, halol bo‘lib voyaga yetishi uchun zamin tayyorlaydi.

Oila va mahalla shunday bir muqaddas makonki, unda insonlar bir-birlari bilan opa-singil, aka-uka, quda-anda, do‘st-birodar bo‘lib, bir xonadon tarbiyasida ham barcha mahalla ahli mas‘ul, yutuqlar ham kamchiliklar ham o‘rtada. Xalqimizda: “Otang –mahalla, onang – mahalla”, degan naql bejiz aytilmaydi.

Mustaqillik tufayli mahallalarning har tomonlama barkamolligini ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992- yil 12-sentabrdagi Farmoniga ko‘ra “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992- yil 17-sentabrdagi 489-sonli “Respublika Mahalla xayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori, 1993-yil 2-sentabrda va Oliy Majlisning 1999-yil 14-apreldagi XIV sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun asosida mahallaning maqomi mustahkam huquqiy asosga ega bo‘ldi.

Mahalla – tarbiya o‘chog‘i. Mahallada o‘tayotgan har bir bolaning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas‘uldir. Shuning uchun ham “Bir bola tarbiyasiga yetti ota-ona” kabi naqlar bejiz paydo bo‘lmagan. Mahallaning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning

negizidir. Agar bola yetmish foiz ma'lumotni besh yoshgacha oladigan bo'lsa, shaxs ma'naviyati shakllanishida oilaning ahamiyati nechog'lik katta ekanligi namoyon bo'ladi. "Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir" [6, 55-56]. Xulq odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'sidir. Noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog'dir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g'ururlanadilar. Agar xalq dushmanlari chiqsa, shu mahalla tarixi, buguni va ertasi uchun hech kim qayg'urmaydi. Bunday mahallaning har bir fuqarosi "men shu mahalladanman" deyishga or qiladi.

Mahalla tartib qoidasi, qadriyatlariga barchaning amal qilishi shartdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mahallada shakllanadi va ravnaq topadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Mahalla instituti shuning uchun chin ma'noda xalqning joylardagi maslakdoshi va ko'makdoshiga, "adolat tarozisi"ga aylanishi odamlarning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi" [7, 59], – deb tushuntirib berar ekan, bu borada kattalar o'rnak, namuna va tashabbuskor bo'lishlari lozim.

Mahalla oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan maskandir. Tabiiyki, oilada ba'zan arzimagan narsa tufayli janjal chiqishi va bu haqda er yoki xotin mahalla qo'mitasiga murojaat etishi lozim. Ular yarashtirish ishlarini olib borgan holda, bu janjallar farzandlar tarbiyasiga nihoyatda og'ir ta'sir etishini, ularning kelajagiga darz ketishini uqtirib borishlari kerak. Chunki bola uyida ko'rganini qiladi va amal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qilinadigan ishlar mahalla bilan oila hamkorligini mustahkamlaydi. Yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar mahallaga hurmat, u yerda istiqomat qiluvchilarga nisbatan yaqinlik, mehr-oqibat ruhida tarbiyalanadilar. Mahallaning to'y-ma'rakalarida o'zlarining ota-bobolariga o'xshab yelkadosh, bironing og'irini yengil qilishga shay bo'lib o'sadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: 1-jild, O‘zbekiston, 2018. – B. 505.
2. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. Prezident I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2014. – B. 77.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – B 203.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 21.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 55-56.
6. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 59.